

2020

## AESTHETIC EDUCATION AND THE FORMATION OF A CULTURE OF READING AMONG YOUTH THROUGH WORKS OF ART

Marguba Mirqosimova Miss

INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN, m.mirqosimova@iiau.uz

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/iiau>



Part of the [Islamic Studies Commons](#), and the [Religious Thought, Theology and Philosophy of Religion Commons](#)

---

### Recommended Citation

Mirqosimova, Marguba Miss (2020) "AESTHETIC EDUCATION AND THE FORMATION OF A CULTURE OF READING AMONG YOUTH THROUGH WORKS OF ART," *The Light of Islam*: Vol. 2020 : Iss. 1 , Article 18. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/iiau/vol2020/iss1/18>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in The Light of Islam by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact [sh.erkinov@edu.uz](mailto:sh.erkinov@edu.uz).

**M.M.Mirkasimova,**  
INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY  
OF UZBEKISTAN, "Religious Psychology and  
Pedagogy" department's Professor, Doctor of science.  
m.mirkasimova@iiu.uz  
11, A.Kadiri, Tashkent, 100011, Uzbekistan.

## AESTHETIC EDUCATION AND THE FORMATION OF A CULTURE OF READING AMONG YOUTH THROUGH WORKS OF ART

### БАДИЙ АСАРЛАР ВОСИТАСИДА ЁШЛАРНИ ЭСТЕТИК ТАРБИЯЛАШ ВА КИТОБХОНЛИК МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

### ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ И ФОРМИРОВАНИЕ КУЛЬТУРЫ ЧТЕНИЯ МОЛОДЕЖИ НА ОСНОВЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ

**Калит сўзлар:** китоб ўқиш, маънавий бойлик, бадий адабиёт, қиёфа, дунёқараш, ўзини намён қилиш, эстетик-тарбия, психологик таҳлил, умуминсоний жўшқинлик, бадий педагогика.

**Keywords:** reading culture, spiritual development, artistic works, worldview, independent thinking, level of reading, finesse, image, spiritual analysis, universal pathos, self-awareness.

**Ключевые слова:** чтение книг, духовное обогащение, художественная литература, образ, мировоззрение, самоутверждение, эстетическое воспитание, психологический анализ, общечеловеческий пафос, художественная педагогика.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish, xotin-qizlar bandligini ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga joriy etish masalalari bo'yicha ko'rsatmalarida qator vazifalar belgilab berilgan. Ayniqsa, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularda kitobxonlik madaniyatini tarkib toptirish va kitobxonlikni keng targ'ib qilishga alohida ahamiyat qaratilgan. Yoshlarni kitobxonlikka va badiiy adabiyotga qiziqtirish vositasida mytola madaniyatini yuksaltirish, nafosat tarbiyasi badiiy

asarlarni targ'ibi orqali ro'y beradi. Badiiy asarni o'qishga o'rgatish orqali farzandlarimizni ma'naviy kamolotga yo'llaymiz.

Xurshid Do'stmuhammad hikoyalarida kompozitsiya, badiiy detallar, joy tasviri, qahramon portreti, syujet alohida ahamiyatga egaligini "Beozor qushning qarg'ishi", "Ko'z qorachig'idagi uy", "O'n birinchi eshik" hikoyalari orqali kuzatamiz. Bu asarlarda ayollar obrazlari tuyg'ular ifodasining tabiiyligi bilan ajralib turadi.

Qadriya obrazi hikoyaning boshidan oxirigacha o'ta samimiyligi bilan kitobxonga yoqadi. Qadriyaga xos oqlik butun jismidan xusni tarovatidan sezilib turadi. Uning ko'ngli, dili oqlikka yo'g'rilgan yorug' nur kabi ekanini his etamiz. Yozuvchi ana shu "oqlik, ilohiy nur" mohiyatiga chuqurroq kirib boorish maqsadida Qadriyani so'zlatadi. Bu qadar bokiralik, pokizalik zamirida insoniylik, samimiyat, ilohiy e'tiqod yashashini uning hikoyalaridan anglab olamiz. Rahm-shafqatga to'la bokira tuyg'ular "yosh bolaning ko'z yoshiday tiniq" mehr-muhabbatga payvand ekanini bolalik xotiralari, ayniqsa, onasi qiyofasida his qilamiz.

Ayvonchaga in qurgan qaldirg'ochlar uyasini ko'chirib tashlagan ota qiyofasi, bundan izillab yig'lagan mushtipar ona holati, u e'tiqod qo'ygan mehr-shafqatning itqitilishi hayajonli va o'ta ta'sirchan manzaranadi. "Onam dadamga quloq solmadilar. Yolvordilar: – Yo-on dadasi, umringizdan Baraka toping, tegmang...

– O't-t, deyapman!

Onam alam aralash yig'lamsirab yana yolvordilar:

– Mana uraqoling, adasi, roziman o'ldiring.

Faqat qaldirg'ochni iniga tegmang! Kasofat uradi, barala top...

– E, irim siriming bilan qoshmazor bo'l-a...

– Ha, ha, "bo'lar ish bo'ldi", – dedilar dadam zaharhanda tovushda, keyin qo'llaridagi tayoqni daraxt ostiga taraqatib uloqtirdilar. Ko'chirib tashladim...

Dadamning gapini onam dab-durustdan tushinib yetdilar, birdan hushyor tortdilar-u lahza sayin anglay boshladilar: "onamning yuzlari qiyshayib ketdi..." [6; 61-b.] Onaning ikkiga bo'linib yerda yotgan qaldirg'ochlarning uyasini kaftida tutib, haykalday qotishi, qaldirg'ochlarning uvvos solib yanada shiddat bilan chir aylanishi, shiftga, devorga o'zini urishi yakson qilingan mehr-muhabbat, shafqat tufayli, insonlarga mehr, iymon-e'tiqod ko'tarilganligi, odamzot qahriga yo'liqib, qahr-g'azab, shafqatsizlik izmiga yurgani tufayli edi. "Qaysi xonadonda

This article highlights the importance of promoting Uzbek literature in improving youth morality through the analysis of literary works. Works by various genres of Uzbek writers, such as Khurshid Dustmuhamedov, Zulfiya Kurolboy Qizi, poets Sirojiddin Sayid, Azim Suyun, Farida Afruz, influence the way of thinking and spirituality of young people, moreover, it serves to improve the level of reading. The article explores the influence of literary works on the enrichment of youth through the analysis of works by famous writers and poets. It is based on the fact that teaching young people to read books and promoting reading is one of the important issues of art pedagogy. Specifically, teaching young people to read books, promoting reading, influencing national trends, responding to spiritual problems through artistic analysis of women's psyche, philosophical interpretation of life's truths and expressing a sense of love for the motherland is one of the important issues of art pedagogy.

В данной статье приводятся аргументы посредством анализа художественных произведений узбекских писателей и поэтов, как Хуршид Дустмухаммад, Зулфия Куралбай кизи, Сиражиддин Саид, Азим Суюн, Фариди Афруз, Махмуд Таир, Икрам Атамурад, о том, что эстетическое воспитание молодёжи посредством изучения различных жанров узбекской литературы способствуют расширению мировоззрения, повышению интеллектуального потенциала и степени развития читательских навыков. А также даёт импульс к развитию мышления, обогащению духовного мира личности. Своеобразный стиль и мастерство каждого писателя или поэта даёт читателям возможность образного понимания мысли, идеи, художественной концепции каждого из них. Поэтапно духовно развиваясь как личность, и формируя личное мнение, читатель обретает навыки литературоведа и критика, оценивая мастерство писателей. Вот почему эстетическое воспитание с помощью художественных произведений имеет огромную силу воздействия на человека, который является объектом художественной педагогики.

mehr-muhabbat, qadr-qimmat, e'tiqod mustahkam bo'lsa, qaldirg'ochlar shu yerni makon tutardi",- deguvchi qariyalar o'gitining ma'nosi ham shundan. Fozilbekning: "Qaldirg'ochlar bizning hovliga hech qachon kelmagan, uya ham qurmagan", – degan o'kinchli armonining ma'nosiga kitobxon tushinadi. Zotan, qaldirg'ochlar timsolidagi oqlik, yorug'likni quvonch, mehr-muruvvatni asrash orqali o'zligimizni saqlab qolamiz. Ezgu insoniy tuyg'ular esa insoniyatni qahr- g'azab tufayli tug'iluvchi yovuzlikdan asraydi, jaholatdan qutqaradi. Qaldirg'ochlar qo'nim topgan joy mehr-muhabbat, shafqat, ezgulik qaror topgan makon ekanligini yana bir karra his qilamiz.

Zulfiya Qurolboy qizining "Ayol" va A.Qahhorning "Ming bir jon" hikoyasida ana shunday o'xshashlik kuzatiladi. Zulfiya Qurolboy qizining "Ayol" hikoyasi adiba ijodini yana bir bosqichga ko'targan. Bu hikoya kutilmaganda insonning o'lim oldi holatlarini teran yoritgani va hayotiyliги bilan qimmatlidir. Unda real voqelik badiiyatga yo'g'rilib o'quvchida estetik zavq uyg'otadi. Adiba inson har qanday vaziyatda hayotga tashna ekanligini bemor qahramoni ruhiyati tasvirida aks ettiradi:

"Ayol ko'zlarini xiyol ochdi. Shu'la endi uning qorachiqlarida akslandi.

"Qanday yoqimli... Tiriklikning yana bir tongi otdi, – ayol ko'zlarini yumib, quyosh nurlarini simirdi, keyin yana ohista pichirladi: – Seni qanchalik yaxshi ko'raman quyosh!.." Quyosh nurlarini mo'l-ko'l to'kdi. Ayol butkul oftob nurlariga g'arq bo'ldi..." { 1;84- b.} Adiba qahramonining hayotga tashna qalbini, umrining oxirgi kunlarini yashayotganligini ishonarli yoritadi. Ko'z o'ngimizda hayotiy haqiqat to'laligicha

gavdalanadi. Bugina emas, Nazokatning o'lim oldida o'zini mardona tutishi kishini hayratlantiradi. Tobora qorni shishib ketayotgan bemor o'zini shu alfozda yaqinlariga ko'rsatgisi kelmaydi. Eri va bolalarining ko'z o'ngida bir umr shu manzara qotib qolishini istamaydi. Hatto shifokordan qornidagi suvni batamom olib tashlashni, xunuk alfozda o'lim topishni xohlamaydi. Umrining oxirgi daqiqalarini yashayotgan ayolning go'zallikka intilishi go'zallik sifatining ayol tufayli abadiy ekanligini anglatadi.

– "Do'xtir... – Nazokat barmog'idagi tilla uzugini vrachning cho'ntagiga soldi. – Suvni oling, iltimos. Faqat oxirigacha!

Vrach yana javob bermadi. Xatto qarab qo'ymadi. Ayolning qo'li cho'ntagiga kirib chiqqanidan keyin ham yuziga qaramadi. Biroq...

– Hamshira! – deya chaqirdi yo'lakka qarab.

Nazokat jilmaydi. Keyin yostig'i ostidan upalikni oldi..." [ 1;85-b.]

O'limga mardona boquvchi personajlar adabiyotimizda etarlicha topiladi. Shunday asarlardan biri Abdulla Qahhorning "Ming bir jon" hikoyasidir. Hikoyadagi Mastura Alieva avvalo taqdiri, qolaversa, kuchli irodasi va yozuvchining maqsadiga ko'ra hayotga qaytadi. Hayotda bu kabi bemorlar aksar hollarda yashay olmaydilar. Ammo yashashga intilish o'limni engadi. Abdulla Qahhor ijodida, ayniqsa, ayol personajlar qalbini ichdan yoritish u qadar kuzatilmaydi. Shunga qaramay, yozuvchining o'ziga xos uslubiga ko'ra bir-ikki shtrixlarning o'ziyoq Masturaning kuchli iroda sohibasi ekanligini bor basti bilan ifodalashga kifoya qilgan. O'limga dadil boqish, taqdirga tan berish insondan kuchli ruhiy tayyorgarlikni

talab qiladi. Ammo bunday kuchni hammadan birday kutib bo'lmaydi. Shu ma'noda yozuvchi shaxsiyatidagi ayrim qirralar uning qahramonlariga ko'chib o'tgan. "Ming bir jon" hikoyasi buning yaqqol dalilidir. Agar Abdulla Qahhor ayol personajlar ruhiyatini bir-ikki shtrixlar bilan gavdalandirishga moyil bo'lsa, undan farqli Z.Qurolboy qizi ayol ruhiyatiga chuqurroq kirib boradi. Personajning har daqiqada ayoligini yoddan chiqarmaydi. Har ikki adib hikoyasida umumiy o'xshashlik shuki, unda ayol qahramonlarning o'lim oldi holatlari yoritilgan. Adiba qahramon o'limini tasvirlar ekan, quyosh nurlariga qayta diqqat qaratadi. "Birdan quyosh ko'zni qamashtiradigan darajada oppoq bo'lib porlab bepoyon osmonni yoritdi, so'ng, yurishini sekinlashtirganday bo'ldi va kasal-xona tepasiga kelganida bor shu'lasini derazasi ochiq xonaga tushirdi, shu'la shu lahza karovatda yotgan xushbichim va go'zal ayol yuzida jilva qildi, qovoqlarini qizartirmoqchi bo'ldi, lekin tosh qotgan qovoqlar qilt etmadi, shu'la o'ziga qadrdon qorachiqalarda akslanmoqni istadi, ammo ularni topa olmadi, u faqat ayolning barmoqlarida paydo bo'lib qolgan uzukning olmos ko'zlaridagina aks eta oldi". [1; 92-b.] Hikoyaning yutug'i unda qahramonning o'lim oldi holati yoki o'limi haqidagi xabarning berilishi emas, o'lim qahramonga qanday estetik vazifa yuklaganligi va kitobxon undan qanday saboq olib, zavq tuya bilganidadir.

Sirojiddin Sayyidning "Ko'ngil sohili" (Sham-noma) turkum she'rlari ichida quyidagi to'rtlik bor:

"Yashil ro'molingda – yashil kunlarim,

Qizil ro'molingda – qizil tunlarim,

Shomu tonglarimday oq ro'mollaring,

Qolgan barcha dunyo – yolg'on unlarim". [ 2;205-b.]

Shoir "yashil ro'mol" – "yashil kunlar" tashbehi orqali yoshlik yillariga ishora qilsa, "qizil ro'mol" va "qizil tunlar" sifat+ot birikmasidan tashkil topgan ramzlar vositasida ma'rifat, haqiqat izlab kechgan damlarini, o'zligini tanishdan, ilm-ma'rifat yo'lidan keyingi Haqni tanish jarayonlarida kechirgan umriga ishora qilmoqda. Tasavvuf ta'limotiga xos "ma'rifat" yo'lidan – qizil rangdan "haqiqat yo'li" – oqlikka tomon intilish jarayonlariga xos ruhiy bedorlikka – "qizil tunlar"ga urg'u berib, ta'sirchanlikni ta'minlashga erishgan.

An'anaga ko'ra, she'riyatda oq rang ezgulik, poklik, yaxshilik, beg'uborlik, yorug'lik timsol hisoblansa, qora rang baxtsizlik, o'lim, yovuzlik kabi ma'nolarni ifodalashi bilan birga kuch-qudrat,

buyuklik kabi ma'nolarga ham ega. Lekin rangdagi bu ma'nolar turg'un emas. Ular turli davr va shoir estetik maqsadiga ko'ra farqlanishi mumkin.

Shoir Sirojiddin Sayyid she'rlarida ham oq rang an'anaviy tarzda ezgulik, yorug'lik, samimiylik kabi ma'nolarni beradi. Bu ma'nolar shoir dunyoqarashida tajassum topgan hayot manzaralarini chizishda o'z ko'lamini kengaytirgan.

Ohlarim ichinda ungan oq gulim

Necha yil yashadim men mushtoq, gulim.

Gohi karashmaga to'lug' daryosan,

Goh oppoq bahorday bir quchoq, gulim...

Yoki:

"Ufqlar, qirlaru osmongacha qor

Toshkantdan Termizu Surxongacha qor.

Ona, bu sog'inchni qandoq yozayin,

O'rtamizda cheksiz oppoq varaq bor."

Ustoz Abdulla Qahhor "Poeziya – yuksak san'at" maqolasida yozganidek, "She'ring mo'jizalik sirlaridan voqif bo'lish, bu sirlarni jilovlash har kimga ham muyassar bo'lavermaydi. Bunga erishish uchun zehn, sabr va mehnatdan boshqa yana nimadir kerak". [3;26-b.] O'sha " yana nimadir" nazarimizda ilohiy ne'mat – badiiy kashf etish salohiyati bo'lmish istedoddir.

Ayni iste'dod sohibi Sirojiddin Sayyid she'rlari, avvalo, mavzu qamrovi kengligi, shakl rang-barangligi va poetik ma'no hamda shoir nigohining o'ziga xosligi bilan ajralib tyradi. Shoir uslubiga xos yetakchi xususiyat esa voqelikka faol munosabat, undan chuqur hayotiy mazmun topish va uni go'zal, ta'sirchan ifodalashdir. Bunda shoir aruz va barmoq vaznlaridagi g'azal, to'rtlik, muxammas, doston kabi janrlar imkoniyatlaridan keng foydalanib, adabiy an'analarni ijodiy ulushi bilan boyitib kelmoqda.

Shoir she'riyatida ko'p asrlik badiiy tajribalar sarchashmasidan fayz va rag'bat olgan hamda betakror talqin va mahorat bilan uyg'unlashgan she'riyatdir. Grajdanklik ruhi va umuminsoniy pafos uning bosh g'oyasini tashkil qiladi. Bu g'oya, fikr va tuyg'u yaxlitligidan badiiy sayqal topgan. Shu bois she'rga to'kilgan tuyg'ular qog'ozga, so'ngra ko'ngillarga ko'chadi. Shoirga xos teran nigoh va ohorli badiiy topilma ifodasi shundan tug'iladi. Bunda fikr va kechinma uyg'unligi, ramziy obrazlilik alohida bo'rtib turadi.

Metaforik badiiy vositalar ijodiylik mahsuli bo'lgani sababli ularda ijodkor fantaziyasi qamrovi keng, hissiy sehri va mental (aqliy-ruhiy) ifodaviyligi chuqur. Ularning mohiyatida ikki xususiyat aks etadi:

birinchisi, narsa yoki obrazga xos jihatni betakror tasvirlash, ikkichisi, shu tasvir va ifoda asosidagi narsa yoki hodisani ijodiy munosabat, badiiy hukm orqali baholash. Bu xos xislatlarning har bir shoir ijodida qo'llanish darajasi va g'oyaviy-badiiy funksiyasi konkret asarlarning tahlilida namoyon bo'ladi. Bunda metaforik vositalarning epifora (bir tarkibli sodda) va anafora (murakkab) turlarini o'rinli va maqsadga muvofiq qo'llash, ayniqsa, muhimdir. Shoir Sirojiddin Sayyid she'riyatida har ikkala holatning ham muvaffaqiyatli ifodasini ko'rish mumkin.

“Yaxshilik eskirmagay” (“Qirq hadis”) to'plami avvalgi “Ko'ngil sohili” “ga jo ma'no va manzaralarning badiiy falsafiy jihatdan teran talqiniy davomiyligini ta'minlagan. Sakkiz va o'n ikkilik misralar orqali shoir insoniy burch va mas'uliyat, ezgulik, ma'rifat, yaxshilik, ona va yurtga, xotiralarimizga sadoqat tuyg'ulari mohiyatini, ma'no qirralarini falsafiy yo'sinda poetik talqin etishga erishgan:

... Har kim bu dunyoda qilganlariga

Yarasha ajr ila mukofot ko'rgay.

Oqargan sochlaring mahshar kunida

Nur bo'lib yo'llaring yoritib turgay. [ 3;105-b.]

Shunisi diqqatga sazovorki, keltirilgan hadislar va hikmatlar ma'nosi sakkizlik va o'n ikkilik misralarga singdirilganidan tashqari shoir xilma-xil tashbehtar, metafora, metonimiya, poetik ko'chimlardan foydalanib, g'oya ta'sirchanligini ta'minlashga erishgan. Qofiya tartibi b-b yoki a-b; a-b tarzida kelib, o'ziga xos ohangni yuzaga keltirgan. “Insonga bir vodiy to'la molu dunyo berilsa, u ikkinchi vodiyning ham berilishini xohlashi” haqidagi hadis mazmuni “nafs” sarlavhali har biri to'rt alohida misradan tarkib topgan sakkizlikda o'z ifodasini topgan bo'lsa, “Xudo aytadiki”, “Baxtsizlik”, “Foydali yomg'ir” kabi sakkizliklar orqali shoir odamlarni insofga, ezgu va foydali amallarga undaydi; “O'lim”, “Meros”, “Sadaqa”, “Odam tanasidagi idish” kabi to'rt va oltilikdan tashkil topgan misralarga jo ma'nolar esa umrning g'animatligi, befoyda so'zdan sukut yaxshiroq ekani, xulqu odobdan ulug'roq meros yo'qligi, Ollohdan foydali ilm so'rash, fursatni g'animat bilish, qalb va axloq go'zalligiga erishishga da'vat etadi.

“Imoratlar quring, soling qasrlar,

Istang olam kezib, baxshilik qiling.

Neki qilsangiz ham qay kasb, amalda

Avval duo oling, yaxshilik qiling...”

“Qirq hadis”ni o'qir ekanmiz, sinovlar dunyosidagi o'z hayotimizni sarhisob etish, amallarimiz nechog'lik ezgulikka xizmat qilishi haqida o'ylash,

mehr ko'rsatish, go'zallikni qadrlash, chanqagan insonga suv tutish, mung'aygan odamlarga ko'mak berish, noumidlar uchun umid chiroqlarini yoqish, tuyg'usizlarga his-tuyg'u ulashish, istagi tug'iladi. Zotan, so'z-inson dilining ko'rki, libosidir. So'z yo'li esa mehr-muhabbat, ezgulik, go'zallik, rostlik, mas'ullik, hikmat yo'lidir. Shoir aytmoqchi:

“Bu olam yashnagay ezguliklardan

Toki insonlarda qalb va hikmat bor,

She'r ham yaralmagay bekorga asli

She'rda Rasululloh aytgan hikmat bor.”

Sirojiddin Sayyidning “So'z yo'li” asari so'nggi davro'zbek she'riyatiga xos yangicha shakliy izlanishlar xilma-xil mavzular va g'oyalar mujassamligida o'ziga xos ohanglarni olib kirayotganidan dalolat beradi. Janrlar rang-barangligi, an'anaviy va yangicha ifoda yo'llaridan, shakllaridan mahorat bilan foydalanish natijasida o'ziga xos falsafiy mushohada bilan tasvirning jozibaliligi, musiqiylik, sodda va ravon ifoda tarzi lirik qahramon kechinmalarini, ruhiy evrilishlarini poetik talqin yoki ichki nutq vositasida yoritish imkonini bermoqda. His-tuyg'u, kechinma va poetik fikr uyg'unligidan yuzaga kelgan lirik obraz o'z “men”ini, o'z ko'ngil olamiga xos manzaralarni tasavvur etib, anglashga undaydi. O'zini o'z ko'ngli orqali taniydi. “So'z yo'li” ham kitobxonni ruhiyat kengliklariga, ko'ngil manzaralari jo bo'lgan tuyg'ular olamiga olib kiradi.

She'rda shakl ixchamligi g'oyaning esa falsafiy ko'lamdorligi ta'minlanishi taniqli shoira Farida Afro'z ijodida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shoiraning “Tasbeh”, “Ushshoq” kabi she'riy to'plamlariga xos xususiyatlar keyingi yillar ijodida yanada to'lato'kis namoyon bo'lmoqda. To'rtliklar (Azim Suyun, Sirojiddin Sayyid), ikkiliklar, hatto birlik she'rlar (Tohir Qahhor, Faxriyor, Ulug'bek Hamdam, Tursun Ali) qatori bugungi she'riyatda inson ruhiyatini, qalbdagi kechinmalarni shaklan qisqa uchliklarga joylashtirib, tagma'noni davr o'zbek she'riyatiga xos shakliy qisqalikka quyma, mantiqiy shiorlar orqali ifodalash tendensiyasi kuzatilmoqda. Bunday izlanishlarni mahorat bilan uddalayotgan Farida Afro'zning uchlik tasbehtarini o'qigan kitobxon matn tagma'nosini o'zi ta'sirlangan holatda hissiyotlari, o'y-kechinmalariga monanad uqib oladi. Shunisi ajablanarliki, shoira o'ttiz uch tasbehdan to'qson to'qqiz misrali shoda yaratib, o'z dunyosiga xos rangin holatlardan falsafiy-ruhiy mantiq asosidagi badiiy umumlashmalar kashf qilishda foydalangan. Uchliklarning ichki qurilishi, ohangi, bo'g'inlar soni, mazmuni turlicha bo'lsa-da

ularni yagona shodaga birlashtirib turuvchi lirik “men” olami, tuyg‘ulari, hukm-xulosalari, mushohadalari, alam-o‘kinch, afsus-nolalari Yaratganga munojot shaklida yaxlitlashadi va mantiqan birlashadi. Yagona shodani tashkil etuvchi uchliklar ohangini turoq tartibi, vazn yo qofiya emas, ko‘proq “men” ruhiyatidagi evrilishlar shiddati va “sen” ni anglash mashaqqati yuzaga keltiradi. Lirik “men” olamini, uning turfa kinoyalari ortidagi ma‘nolarni o‘zligini idrok etish barobarida “sen”ga ba‘zan “uchinchi odam”ga murojaat qiladi. Poetik to‘xtamlar, tuyg‘ular ziddiyatidan, insonni anglash yo‘lidagi ikkilanishlar, yo‘qotishlar, aldanishlar, iztirobli og‘riqlar zarbini kitobxonga yuqtiradi.

Yig‘lasam gar sen uchun emas,  
O‘zim uchun ham yig‘lamadim, yo‘q.  
Peshanamni o‘qidim, xolos.

\*\*\*

Telefonning dastagi botdi,  
Yonib ketdi qulog‘im lov-lov.  
Sinib tushdi tilla baldog‘im.

\*\*\*

Sovib ketfi havolar birdan,  
Quyoshni kim o‘g‘irladi, kim?  
Kimga kerak muzlagan ba‘g‘ir?!

\*\*\*

Shukrki, sen boqiy emassan, Hayot!  
Hayriyat, sen borsan, O‘lim!..  
Yaxshiyamki, yutib turasan, Yer!

\*\*\*

Tariq ekdim chumchuqdan qo‘rqmay,  
Qo‘rquvlarim tariqdek sochdim.  
To‘ying endi, nokaslar.

\*\*\*

Men ham adashin “Haqman!” dedim.  
Sen ham telbalaricha “Haqman!” deding.  
Haq esa hayron. [ 5; 66-b.]

Shoira “men” ruhiyati manzaralarini chizishda davom etib, har bir holat mohiyatini anglashga yo‘llovchi vaziyat yaratadi. Bu vaziyatdan foydalana olsakkina, tasbehlar ta‘mini – ma‘nolar mag‘zini tuyamiz, olamni hissiy anglash orqali turfa jilolarda tasavvur qilamiz, natijada jozib tuyg‘ularga tuyg‘udoshga aylanamiz.

Istiqlol davri o‘zbek she‘riyatida an‘anaviy tasvir uslubi vositasida tabiat go‘zalligini poetik

gavdalanirish, tabiiy ranglarni poetik tasvirlash Azim Suyun ijodida ham alohida tarovat bilan his qilinadi.

Azim Suyun ash‘orlarining o‘ziga xosligi ularga singishgan xalqona ohangdan, Nurota tog‘lari bag‘ridagi yurt go‘zalligi mujassam poetik chizgilardan, chashmaday buloqlar qaynashiga monand ehtiroslilik, tog‘ shalolasiday mayin tuyg‘ular haroratidan his qilinadi. Ko‘z o‘ngimizda lojuvard ufq, shovullayotgan “she‘r yolli” chinorlar, oy yog‘dusida jilvalangan “zar chashma”, yorishib borayotgan tog‘lar darasi, cheksiz kengliklar namoyon bo‘ladi. Lirik qahramon kechinmalariga kechinmadoshga aylanamiz.

Lojuvard ufqda mening uyim bor,  
Bir uyki, o‘ylarim oydin, sarasi.  
Shu ufq tagida mening uyim bor,  
Nurota tog‘larin u yer orasi.  
Uning osmonida burgut qanotin,  
Shiddati havoni qalqitar tinmay.  
Cheksiz kengliklarga bo‘z muhabbatin  
Cho‘pon tili bilan izhor etar nay.  
Olmos qoyalarda olmos nur o‘ynar,  
Cho‘qqilar uzra, huv, jayron bolasi.  
Buloqlar boshida kakliklar kuylar,  
Sozlarin bastalar tog‘ shalolasi. [ 3; 67-b.]

Lirik qahramon “qirqim-qirqim qirlarga”, “gullarga to‘lgan” qadrdon dalalarga, “mayin maysalarga” boqib, o‘xshashi yo‘q shu diyorgagina hos isni tuyadi, “yig‘lab-kulib, ezib” bag‘riga bosadi. Bu kabi badiiy barkamol asarlar kitobxonlarda yurtparvarlik tuyg‘ulari kamol topishiga ta‘sir ko‘rsatadi.

Hozirgi axborot “buhroni” avj olgan shiddatkor zamonda badiiy so‘z qadrini ko‘tarish, adabiyot va san‘atning jamiyat hayotidagi beqiyos ahamiyatini tiklash dolzarb masala hisoblanadi. G‘arbda tug‘ilgan “Ommaviy madaniyat” milliy adabiyotlar va qadriyatlarini toptashga urinmoqda. U ayniqsa yoshlar ongini buzishga, qalbini bulg‘ashga, fahshga rag‘batlantirishga urinmoqda. Bu masalada psixolog va pedagog olimlardan P.Ergashev (2019), M.Mirqosimova (2019), M.Alimova (2019), R.Isakjanov (2019)larning ilmiy maqolalarida ham fikrlar bayon qilingan. Shunday davrda badiiy barkamol asarlarni omma qalbiga yetkazish, yoshlarni ezgulikka da‘vat qilishda vijdon ovozigga aylangan adabiyotning asl asarlaridan bahra olish dolzarblik kasb etadi. Mustaqillik yillarida yaratilgan ana shunday asl asarlar sirasiga O‘zbekiston xalq shoiri Mahmud Toir ijodining alohida o‘rni bor. Taniqli shoir o‘zbek mumtoz she‘riyatiga xos an‘analarni

zamonaviy shakllarda davom ettirib, soʻzning sehri, jozibasini ajoyib mahorat bilan namoyon etayotgan isteʼdodlardan biri. Shu bois uning sheʼriyati hozirgi oʻzbek sheʼriyatida oʻz oʻrnini topdi. Xalqona ohang, samimiyatga yoʻgʻrilgan tuygʻular, goʻzal tashbehlari bilan shoir kitobxonlar koʻnglini rom etdi. Chunki shoir sheʼriyati mehr-muhabbatga yoʻgʻrilgan insoniy tuygʻularni tarannum etadi.

Hayot hodisalari toʻgʻrisida oʻylash, jumladan adabiyot asarlari haqida mushohada yuritish har bir kishining ongini oʻstirib, dunyoqarashini kengaytiradi. Dunyoqarashi keng odam esa hayotga boshqalardan koʻra teranroq nazar tashlaydi. Narsa-hodisalarning oʻzgalarga koʻrinmaydigan tomonlari, yashirin jihatlari shoir nigohida oʻzgacha jonlanadi, oʻzgacha maʼnolar kasb etadi.

Mahmud Toirning aksariyat sheʼrlari qalb tugʻyonlarini, koʻngil manzaralarini aks ettiradi. Insonni faol boʻlishga, hayotning, fursatning qadriga yetishga undaydi. Bir soʻz bilan aytganda shoir sheʼrlari insonni ulugʻlashga undaydi. Bu uning muhabbat mavzusidagi sheʼrlarida ayniqsa yorqin koʻrinadi.

“Elkangdagi qirq kokil qirqta joningmi sening?

Qurboni boʻlsam arzir bitta joningni sening.

Yor, oʻzingga yetmadi ohlarim, dodim mening,

Elkangdagi qirq kokil qirqta faryodim mening”.

[4. 83-b.]

Muhabbat kishilar hayotiga teran mazmun baxsh etadi. Bu tuygʻudan odamlar qalbi charaqlab yonadi. Muhabbat insonni oyga olib chiqadi, nur boʻlib qalbini yoritadi, tun boʻlib borligʻini qorongʻulikka, zulmatga burkaydi. Ishq-muhabbat oddiy odamlarni gʻam-anduhga botirib, nochor qilib qoʻyganiday, shohu sultonlarni ham mahzun holatga soladi. Shu bois muhabbat abadiy mavzulardan biri.

Mahmud Toirning muhabbat mavzusidagi sheʼrlari, jozibador, taʼsirchan. Shoir sevgi sogʻinchlarini ham, adoqsiz iztiroblarini ham, alamli ogʻriqlarni ham, chorasiz hijronlarni ham dardchil ohanglarda ifodalaydi.

Xalq qoʻshiqlarida, qadimiy dostonlarda oshiqning samimiy muhabbati, sadoqati ulugʻlanadi. Samimiy muhabbat esa sogʻinchdan paydo boʻladi. Shu mazmundagi sheʼrlarni mutolaa qilganimizda qalbimizga ham oʻsha tuygʻu koʻchib oʻtadi, shu his koʻnglimizni qamrab oladi. Muhabbat har qanday insoniy munosabatlarga mazmun va joziba baxsh etadi. Shu tuygʻu tufayli odamlar bir-biriga intiladi, samimiy munosabat yuzaga keladi.

Mahmud Toirning muhabbat mavzusidagi sheʼrlarida ana shunday samimiy tuygʻular ifoda qilinadi:

“Koʻzlaringda armon jolasi,

Koʻzlarimda hijron nolasi.

Boʻynimda dor soching tolasi

Kel, ketaylik dunyolaridan.

Seni koʻrib qaldirgʻoch yigʻlar,

Menga boqib xushnuddir zogʻlar,

SHu zogʻlarga boʻlsin bu bogʻlar,

Kel, ketaylik dunyolaridan...” [4;83-b.]

Pokiza tuygʻularga toʻla ikki qalb egasi “zogʻlar” dunyosidan ketishni, jannatlarga yetishni orzu qiladilar. Zero, ularning qalbi boshqalarniki kabi kirlanmagan, pok va samimiy.

“Xaritaga tushmagan joy” dostonida ham shoir Ikrom Otamurod “men”ning oʻz-oʻzini axtarish, oʻzligini topish, koʻngil manzil-makonini tayin etish yoʻlidagi kechinmalari poetik tahlil qilingan. “Togʻlar qoramtir, ummonlar koʻkish, oʻrmonlar yashil tus, sahrolar sariq, qaysidir yurt kelbatli, qaysisi oriq” xaritadan olmish joy. Shoir dunyo xaritasini tuzgan donoga qarata deydi:

“... sendan kichik bir iltimos,

ranglaringga bir rang qoʻshginu, yana,

ellaru yurtlarning oʻrtasiga mos,

koʻrinarli qilib rangin, hoynahoy,

ki shungacha esdan chiqib kelgan bir –

xaritaga tushmagan joy –

kangulning tarzini tushir...”

Aslida, ummonlar, dengizlar, daryolarning goh toshib, goh sokin toʻlqinlanib oqish holati, shakl-shamoyili, ranglari maʼnosiga bu Dune qiyofasi mos tushadi. Daryo-yu dengiz girdoblari, oʻpqnolari kabi rahm-shavqat neligin bilmaydigan dunyoning aylanishi-yu, “tezo-parastligi” ham oʻxshash. Eng ajablanarli tomoni shundaki, dunyo ranglari goʻyo insonlar qiyofasiga koʻchib oʻtgan.

“Koʻp narsani istab, qidirar odam,

Mayda-chuydalarga xohishin beri...

Qiziq deysan, ajab deysan, yo Rab deysan,

... Muhimi – kangul, kangulni qidirish,

Muhimi – kanguldir, kangulni topish...” [8;21-b.]

Shoir Ikrom Otamurod tilidan koʻngilni topish zahmat, azob, haqiqat izlash yoʻlidagi mashaqqatli hayot ekani bayon etiladi. Muhimi, niyatning pokligi, tilakning goʻzalligi, ruhninig latifligi; “muhimi – odamlar seni sogʻinsin, koʻrganda mehr-la bagʻriga

bosib, kuzatganda, kutib yana kelishib, xayr soʻzlaridan toʻkilib sogʻinch, umidlarga toʻlsin bu kangul...”. kichik narsalardan oʻzlikni baland tutish, mayda havaslar “quli”ga aylanmaslik, ezgulikdan harorat olib yashash orqali “kangulga aylanish, kangulni asrash hissi” ulgʻaytirib borar koʻngilni; oʻzi oʻz koʻnglini bilolmaslik - oʻz koʻngliga begonalik nishonasi, oʻz koʻnglini xor etgan kimsa “oʻzga ariqning shovrida oqar”, manfaat loyiga belanar, nafs qurboniga aylanar va koʻnglini zor qaqshatar. Koʻngilga putur yetsa, odam olamni buzar, “qadr donlar yovlashib, mehru muruvvat toʻzar” oʻz koʻnglidan kechmoqlik undanda yomon! Ruh pora-pora boʻlar, gʻurur choʻkadi, qalb qaqshaydi, nafsning bozori chaqqonlashadi, yurak – “xiyonatlar koʻmilgan qabrga” aylanadi. Bu manzara qanday maʼnoni anglatadi? “Hurdir – kangulni etganlar Vatan, kangluni topganlar - hurdir”. Shu bois eng katta mamlakat kanguldir. Koʻngil mamlakatining xaritaga tushmay qolishi uning insoniyat tomonidan yoʻqotib qoʻyilganligini anglatadi. Odamlari - iymonga, daraxtlari eʼtiqodga, daryolari mehrga, togʻlari – gʻururga aylansagina, koʻngil mamlakatining chirogʻlari yoniq boʻladi. Odamlar oʻz koʻngillarini axtarib topsalar, koʻngil mamlakati yashaydi, inson jismidagi muqaddas makonga aylanadi.

Dostondagi shoir obrazi va uning monologlari vositasida “Dunyo aks etgan xarita”, “kangul”, “oʻz koʻngliga begona kas”, “nafs”, “igʻvogar, hasadgoʻy, yolgʻonchi odam”, “davrada gap bermaydigan odam”, “safarga hirs qoʻygan sayyoh” kabi obraz-ramzlarning maʼnosi ochib berilgan, oʻz koʻngliga begonalik katta fojea ekanligi yoritilgan.

Ikrom Otamurodning “Tagʻazzul” dostonida ishqbozlik, oshiqlik kechinmalaridan – ishq “yarolari”dan qad koʻtargan bino tasvirlanadi:

“Tagʻazzul – koʻp qadim binodir, zotan,  
meʼmorlari – kangul fuqarolari.

Ishqqa doxil suyagi surmalarga tan –  
jismimda nish otgan ishq yarolari”. [15; 27-b.]

Ishq binosining devorlari sogʻinchlardan, sabrlar, sukunatlar, yonishlardan bunyod boʻlgan. Shifti esa bu binoning “fuqarolari”dan biri shoir kabi ishqbozlar “ustixonidan terilgan ogʻoch”, “koʻzlarim – qaldirgʻochga intiq deraza”; “naqshlar toʻqigan suvogʻ – qonlarim”; “sahnlarini yoritgan chirogʻ – jonlarning joni”; “eshigi – zil ketgan yuragim darzi”; binoning shakli – hajr yomgʻirlari yemirgan vujud koʻrinishida; bul bino yaralgandan buyon “kangulning nolasi, kangulning kuyi” sas berur. Shoir ritorik soʻroq usulidan va misralar takroridan poetik fikr

mohiyatini turli nuqtalardan ochishda foydalangan: ishq yarolaridan bunyod boʻlgan koʻngil uyining ne sabab “kunduzi firogʻu hijrondir tuni?” “Bu nechuk hilqatki, shoir kabi notavon, undayin gʻarib? Koʻngul uyini qurshagan bu nechuk dardki, qaygʻuni ham, gʻamni ham sel qilur?!”. Savollarga javob izlayotgan “shoir obrazi” – “men” tilidan taʼkidlaganiday, bu sir “faqat koʻngul bilan anglanuvchi sir!” “Koʻngulda ishq yaproq yozmagan” odamlar “men”ning dardlarini, his-tuygʻularini anglashdan yiroqdirlar, binobarin, ishqbozlarga tuygʻudosh boʻlolmaydilar. Shoir oʻz koʻnglining “yirilgan varagʻlariga” nazar tashlab, “koʻnglim – ishq dardini oʻstirgan tufroq, ishq – tarjimai holi kanglumning”, - deya umr boʻyi oʻz koʻngliga intilib yashaganligini taʼkidlaydi. Bu yoʻlda har qancha ranj chekmasin, azob tortmasin, “men” oʻz iymonu eʼtiqodidan, tanlagan yoʻldan chekinmaydi. Zotan, bu mashaqqatli yoʻl – koʻngil uyi tomon eltuvchi, tagʻazzul binosiga yetaklovchi yoʻl edi.

Oldin kunlar...

Soʻngra oylar...

Keyin yillar...

Baribir...

Bordir har lahzada nimadir ilin,

Bordir har lahzada nimadir paygʻom...”

“Men” oʻz maqsadiga yetishda ilinju ishonchga, sabrga suyanadi, faqat buyuk ishq bilan tagʻazzul binosining meʼmorlaridan biriga aylanishi mumkinligini anglab yetadi:

“Men senga intildim, koʻz yoshim yutib,

Koʻnglimga yomgʻirlar yogʻdi betinim.

Men senga intildim, oʻzim unutib,

Zohir lahzalarning har tun, har kuni”.

Bu manzilga yetish uchun “men” buyuk ishqdan oʻz koʻngil uyini barpo etishi darkor.

Barcha sinovlarga dosh berib, yuragiga nayzalar botib, “kuyayotgan jonu kul boʻlgan bagʻir” bilan qadimiy tagʻazzul binosiga yetib borgan “men” dunyoning “azob toʻla jom”ligi, “qaqragan lablarga” tomchi suv tutmaydigan bemehrlar joyi ekani; rostga qayishmay, yolgʻonlarga zeb bergan, tunini “tong yorigʻi” sindirgan, “ishqsiz ishq dunyosin unutgan dunyo”ga roʻbaroʻ keladi. Dunyo ham, undagi odamlar koʻngli ham rangsiz, iymoni yemirilgan; tagʻazzul binosini qurshagan borliqning sukuti unga koʻchgan:

Sukunat –

tagʻazzul binosida tang –

poymonning sinishi, ahdning sinishi

... qaldirgʻoch koʻzlarin tushida koʻrar –

dardlarning, gʻamlarning qaʼriga botib...



Uchayotgan barglarga termulib turar –  
tag‘azzul binosi sukunatni yutib,

Ma‘lum bo‘ladiki, qalblarning mudrashi –  
sukunatdan, ishqsizlikdan, bemehrlikdan darak beradi,  
buning oqibatida insonlarning ko‘ngil binolari nurab  
bormoqda. Rangsiz tuyg‘ular bo‘m-bo‘sh ko‘ngillarni  
ifoda etmoqda, yashashdan maqsadning noaniqligi,  
ahdu poymonning “siniqligi”, ko‘ngil eshiklarining  
darz ketishiga, oxir-oqibat, ko‘ngil me‘morlarining  
buyuk ishqdan bunyod etgan qadimiy tag‘azzul binosi  
yemirilishiga sabab bo‘lmoqda.

Kitobxon “men”ning dardchan, so‘nib borayotgan  
nolasi ta‘sirida mehr-muhabbat, imon-e‘tiqod, buyuk  
ishq binosiga talpinadi, uni asrab qolish istagida o‘z  
ko‘ngil tag‘azzulini mustahkamlash maylini tuyadi.

Shoirning “Uzoqlashayotgan og‘riq” nomli  
dostoni muayyan andozalarga mos kelmaydi.  
Poetik tafakkur tarzining serjilvaligi lirik qahramon  
ko‘nglidagi og‘riqning xilma-xil ma‘nolarni ifoda  
qilishidan anglashiladi: “Toki bu dunyoda shunday  
bir og‘riq borligi va usiz odamzod qalbi g‘aflat,  
jaholatga botib qolishin anglasin, tushunib yetsin  
yurakdan. Uyg‘onsin qalbining qa‘rida mudrab, g‘ofil  
yotgan og‘riq azobi...”. Lirik qahramon qalbidagi bu  
og‘riq qanday ma‘noni ifoda qiladi? Uning tizginsiz  
o‘ylari ne sabab odamning o‘zligi haqida? O‘zlik  
shoir talqinicha, bu XOTIRANG, QADAMIYATING,  
NOMING, LISONING, VATANING, HAQIQATING  
va yuraging quvvati – ERK-U IXTIYOR, so‘zing  
ravon etgan NOMUS va ORING!

Lirik qahramon vujudini o‘rtagan alam, iztirob  
og‘riq minbarda haqiqatdan lof urib, amalda undan  
niqob o‘rnida foydalanuvchilar tufayli. Yurtining  
nomidan ot surib, e‘tiqodin shilliqqurt kabi so‘rib  
yotganlar; aqli siyrak, fahmi notavon zotlar; a‘moli  
o‘marish, qilmishi-nayrangdan iborat kimsalar tufayli.  
Shular tomiringni yemirib borarlar. Barcha nodonligu  
jaholatlarga ular sababchi.

Iymonni, vijdonni tufroqqa qorib,  
ta‘maning qarami bo‘lsa muddaong,  
yo rabbim, ko‘ksingda to‘r to‘qir tinmay,  
o‘rgimchak baloi nafsning a‘moli.  
Kimligin bilmagan banda alhazar,  
hamisha o‘qlangan sopqon singari  
g‘anim dastida shay turgan qatori:  
sotqinlik, jinoyat o‘shandan sodir,  
razolat, xiyonat o‘shandan paydo,  
o‘sha – ishorani bajaruvchi qul,  
o‘sha – HAQIQATNI mo‘ljal olgan tig‘. [9; 40-b.]  
Mabodo, inson o‘zligini anglab yetmasa, kechani

esdan chiqarsa, bugunning o‘zida to‘xtab qoladi. Shoir  
lirik qahramon qalb nidosi orqali erta sari borayotgan  
odamlarga qarata o‘zing bilan birga kechadan kelgan  
mehrni, ishonchni, oqibatni ertangi kunlarga olib o‘t.  
Bu fazilatlarini bobolaring senga meros qilib qoldirgan,  
ularni unutsang o‘zligingga ham begonasan...  
deya bong uradi. Ko‘ngil qo‘nog‘ida doimo men  
kimningdur o‘rnidaman, degan bir ilohiy his makon  
tutmog‘i mansub. Umid shundan. Shafoat shundan.  
Inoyat shundan. Shular tufayli zaminda hayot davom  
etadi, inson erta sari intiladi, azobu og‘riqlar undan  
uzoqlashadi. Ammo, og‘riqsiz yashab bo‘ladimi?  
Hayotning turli yo‘llaridan yurib kelayotgan  
ikki yo‘lovchining hayot falsafasi, nuqtai nazari,  
sezimlari, hukm-xulosalari orqali bu savolga javob  
topamiz. Bundan qochib ketayotgan to‘rg‘aylarni,  
yo‘rg‘alarni, safsarlarni vaqtida mehr bilan ortga  
qaytarsak, sotqinlarning urchishi, qo‘rqoqlarning  
tig‘ tutishi, manfaat jallodlari bo‘y cho‘zishiga chek  
qo‘yiladi. Odamlararo mehr-muruvvat makon topsa,  
nazarning to‘qligi, dil forig‘ligi, yuzlab ko‘zlarning  
birdan ochilishiga sabab bo‘ladi. Barchaning mulki  
– IMON, davlati – SUBUT, makoni – VATANGA  
aylansa, iztirobni tuysa, sevsa, sevilsa, og‘riq undan  
uzoqlashmasa, shunda IYMONga yetishar, ko‘ngil  
poklanar. Dostonning falsafiy-badiiy umumlashmasi  
salmoqli.

“Xaritaga tushmagan joy” dostonida ham  
“men”ning o‘z-o‘zini axtarish, o‘zligini topish, ko‘ngil  
manzil-makonini tayin etish yo‘lidagi kechinmalari  
poetik tahlil qilingan. “Tog‘lar qoramtir, ummonlar  
ko‘kish, o‘rmonlar yashil tus, sahrolar sariq, qaysidir  
yurt kelbatli, qaysisi oriq” xaritadan olmish joy. Shoir  
dunyo xaritasini tuzgan donoga qarata deydi:

“... sendan kichik bir iltimos,  
ranglaringga bir rang qo‘shginu, yana,  
ellaru yurtlarning o‘rtasiga mos,  
ko‘rinarli qilib rangin, hoynahoy,  
ki shungacha esdan chiqib kelgan bir –  
xaritaga tushmagan joy –  
kangulning tarzini tushir...”

Aslida, ummonlar, dengizlar, daryolarning goh  
toshib, goh sokin to‘lqinlanib oqish holati, shakl-  
shamoyili, ranglari ma‘nosiga bu Dune qiyofasi  
mos tushadi. Daryo-yu dengiz girdoblari, o‘pqnolari  
kabi rahm-shavqat neligin bilmaydigan dunyoning  
aylanishi-yu, “tezobparastligi” ham o‘xshash. Eng  
ajablanarli tomoni shundaki, dunyo ranglari go‘yo  
insonlar qiyofasiga ko‘chib o‘tgan.

“Ko‘p narsani istab, qidirar odam,

Mayda-chuydalarga xohishin beri...

Qiziq deysan, ajab deysan, yo Rab deysan,

... Muhimi – kangul, kangulni qidirish,

Muhimi – kanguldir, kangulni topish...” [8; 20-b.]

Shoir tilidan ko'ngilni topish zahmat, azob, haqiqat izlash yo'lidagi mashaqqatli hayot ekani bayon etiladi. Muhimi, niyatning pokligi, tilakning go'zalligi, ruhning latifligi; “muhimi – odamlar seni sog'insin, ko'rganda mehr-la bag'riga bosib, kuzatganda, kutib yana kelishing, xayr so'zlaridan to'kilib sog'inch, umidlarga to'lsin bu kangul...”. kichik narsalardan o'zlikni baland tutish, mayda havaslar “quli”ga aylanmaslik, ezgulikdan harorat olib yashash orqali “kangulga aylanish, kangulni asrash hissi” ulg'aytirib borar ko'ngilni; o'zi o'z ko'ngilini bilolmaslik - o'z ko'ngliga begonalik nishonasi, o'z ko'ngilini xor etgan kimsa “o'zga ariqning shovrida oqar”, manfaat loyiga belanar, nafs qurboniga aylanar va ko'ngilni zor qaqshatar. Ko'ngilga putur yetsa, odam olamni buzar, “qadrdonlar yovlashib, mehru muruvvat to'zar” o'z ko'ngildan kechmoqlik undan-da yomon! Ruh pora-pora bo'lar, g'urur cho'kadi, qalb qaqshaydi, nafsning bozori chaqqonlashadi, yurak – “xiyonatlar ko'milgan qabrga” aylanadi. Bu manzara qanday ma'noni anglatadi? “Hurdir – kangulni etganlar Vatan, kangulni topganlar - hurdir”. Shu bois eng katta mamlakat kanguldir. Ko'ngil mamlakatining xaritaga tushmay qolishi uning insoniyat tomonidan yo'qotib qo'yilganligini anglatadi. Odamlari - iymonga, daraxtlari e'tiqodga, daryolari mehrga, tog'lari – g'ururga aylansagina, ko'ngil mamlakatining chirog'lari yoniq bo'ladi. Odamlar o'z ko'ngillarini axtarib topsalar, ko'ngil mamlakati yashaydi, inson jismidagi muqaddas makonga aylanadi.

Dostondagi shoir obrazi va uning monologlari vositasida “Dunyo aks etgan xarita”, “kangul”, “o'z ko'ngliga begona kas”, “nafs”, “ig'vogar, hasadgo'y, yolg'onchi odam”, “davrada gap bermaydigan odam”, “safarga hirs qo'ygan sayyoh” kabi obraz-ramzlarning ma'nosi ochib berilgan, o'z ko'ngliga begonalik katta fojea ekanligi yoritilgan.

Pedagog olimlarning kuzatishlari ma'naviy inqirozning bosh sababi tarbiyaga kelib taqalishini ko'rsatadi. Tarbiya bola tug'ilgandan boshlab oilada, ta'lim maskanlarida amalga oshiriladi. Didli, saviyasi yuqori, kitobxonlik madaniyati yuksak o'quvchi kitobxon ham ayni go'shalarda shakllanadi. Bolaning xayoli cheksiz, tuyg'ulari nozik va beg'ubor. Ular kattalardan, o'z dunyosiga yaqin kishilardan, mehrini qozongan odamlardan ibrat olishadi. Adabiyotni

anglash – hayratdan boshlanadi. Badiiy asarlar o'quvchini hayratga solsa, adabiy qahramonlar ularning ongu tafakkurini, ko'ngilini zabt etolsa, hayrat, zavqu shavq uyg'onadi. Badiiy asarni qo'liga olgan kitobxon notanish orolga tushgan sayyohlardek asar voqealari, qahramonlar taqdiriga daxldor barcha tafsilotlar bilan qiziqib, tanisha boradi, ya'ni u ham mashaqqat chekadi. Notanish orol sayyohlari yashash uchun kurashsalar, kitobxonlar badiiy asarni o'qish davomida hayot jumboqlari haqida o'ylab, fikrlab, uning mohiyatini chuqurroq anglab boradilar va o'z hukm-xulosalarini chiqaradilar. Natijada mustaqil fikrlash salohiyatlari rivojlanadi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichidagi o'quvchilarni sarguzasht xarakteridagi ertak, hikoya, masal, doston va qissalar zavqlantirsa, o'smir bolalarni fantastik asarlar yoki hayotiy ziddiyatlarga boy, serhayajon manzaralar, muhabbat tuyg'ulariga hamohang holatlarni boshidan kechirgan qahramonlar qiziqtiradi. Keyingi davrlarda esa ularga xos yoshlik g'aroyibotlari o'rmini hayotga, odamlarga jiddiy munosabat egallab boradi. Adabiyotga bo'lgan qiziqishlari ham yangi mazmun kasb etadi. O'qiladigan asarlar mundariyasi o'zgarib boradi. Kitobxonlik madaniyatiga erishgan yoshlar qo'liga tushgan asarni pala-partish o'qimasdan, o'z qiziqishiga ko'ra tanlashni o'rganadi. Tanlab o'qishga o'rgangan o'quvchida kitobxonlik didi shakllanib borayotganligini kuzatamiz.

Kitobxonlikni har kim har xil tushunadi. Birovlar vaqt o'tkazish uchun kitob o'qisa, boshqa toifa odamlar muayyan mavzudagi asarlarnigina o'qiydilar. Yana bir toifa odamlar o'zlari alohida mehr qo'ygan yozuvchi yoki shoirlar asarlarinigina o'qiydilar. Ba'zilar faqat she'riy asarlarni tushunib, his qilib o'qisalar, boshqalarni nasrda bitilgan asarlar ko'ngliga yaqinday. Har qanday holatda ham kitob mutolaasi orqali insonlar ruhiyatidagi kemtiklarni to'ldirish, ma'naviy oziqlanishga bo'lgan ehtiyoj tufayli kitob o'qiydi. Quddus Muhammadiy ta'biri bilan aytganda, «odam va olam» sirlari bilan yaqindan tanishish, “ruhiy tozarish” (Aristotel) kitob mutolaasi orqali yuz beradi.

«Yangi adabiyot, – degan edi Cho'lpon «Adabiyot nadur?» nomli maqolasida, – chin ma'nosi ila o'lgan, so'ngan, qoralangan, o'chgan, majruh, yarador ko'ngilga ruh bermak uchun faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydurg'on, o'tkur yurak kirlarini yuvadurg'on toza ma'rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorug' va ravshan qiladurg'on, chang va tuprog'lar to'lgan

ko‘zlarimizni artub tozalaydurg‘on buloq suvi». [5;71-b.]

Adabiyotning «ma‘rifat suvi», «buloq suvi» vazifasini bajarishi badiiy asarlarning ilmiy yoki metodik adabiyotlardan farqli obrazlilikida ko‘rinadi. Badiiy asarlar bilim berish bilan birga zavq bag‘ishlaydi, nafosat tarbiyasini amalga oshiradi, ongu tafakkurimizni, tuyg‘ularimizni yorqinlashtiradi va yuksak insoniy tuyg‘ularni shakllantiradi.

«Ilmiy asarlar g‘aflat va jaholatdan xalos etsa, badiiy asarlar dag‘allik va razolatdan xalos etadi. Uni ham, bunisi ham kishilarni ma‘rifatli, baxt-saodatli bo‘lishi uchun babbaravar foydali ham zarurdir, – deb yozadi p.f.d., professor Safo Matchonov, – eramizgacha bo‘lgan birinchi asrda yashab ijod etgan Rim shoiri Tit Lukretsiy Karning «Narsalarning tabiati haqida» poemasi Sitseron, Vergiliy, Jordano Bruno va Bekonlarni cheksiz hayratga solgan. N‘yuton va Lomonosov kabi mutafakkirlar dunyoqarashining shakllanishida katta rol o‘ynagan. Ysuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig», Firdavsiyning «Shohnoma», Alisher Navoiyning «Xamsa» dostonlari ham necha asrdiki, jamiyatning ma‘naviy kamolotiga xizmat etib kelmoqda». [5;25-b.]

Darhaqiqat, shunday, ammo nima uchun badiiy asarlar, xususan, Abdulla Oripov kabi so‘z san‘atkorlari yaratgan asarlar ham hammaga birdek ta‘sir ko‘rsatavermaydi? Hamma o‘quvchi shoir asarlaridan birdek hayratni tuymaydi, hayajonlanmaydi? Badiiy asarlarni muntazam o‘qish ma‘naviy ehtiyojga aylangan kitobxonlarda estetik did ham, hissiyot hamda badiiy obrazlilik mohiyatini tushunish qobiliyati ham rivojlangan bo‘ladi. Ular badiiy asarlarni his qilib, tushinib o‘qiydilar, o‘qiganlaridan bahra olib, zavqlanadilar.

Badiiy asarning yetukligi, mukammalligi barcha muammolarni hal etmaydi. O‘quvchilar asar g‘oyasini anglash, mazmunini tushunish, obrazlar xarakteri va kechinmalari mohiyatini chuqur his qilishlari uchun yozuvchi ilgari surgan g‘oyani anglab, badiiy asarni o‘zlashtirib olishlari lozim. Buning uchun muayyan adabiy tayyorgarlik bosqichlaridan o‘tib, badiiy asarni chuqur his qilib anglashga, o‘z fantaziyasi va tafakkurida qayta jonlantirishga erishib borishlari talab etiladi.

«Taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarda, – deb yozgan edi yozuvchi Xudoyberdi To‘xtaboev, – kitobxonlik fan darajasiga ko‘tarilgan. Kitobxonlik kitobni targ‘ib qilish yoki kitob o‘qishni targ‘ib qilishgina emas, balki kitob o‘qishni, o‘qiladigan kitobni tanlay olishni, mag‘zini chaqishni, ya‘ni kitob

yordamida o‘zini anglashni o‘rgatish hamdir.» [5;25-b.] Badiiy asar o‘qishni targ‘ib etish, o‘quvchilarni kitob o‘qishday ijodiy mehnatga tayyorlash, oxir-oqibat, didli kitobxonni shakllantirishga erishish o‘quvchi yoshlarda yuksak ma‘naviy sifatlarni tarkib toptirish omilidir.

O‘rta Osiyoning qadimgi maktab va qorixonalarida odatda imom, so‘fi, domla, mulla, otinbuvarlar mashg‘ulot olib borishgan. Ular asosiy e‘tiborni tarbiyalanuvchining tarbiyalanganlik darajasini oshirishga qaratganlar. Chunki o‘sha davr uchun yozishni bilishdan, turli dunyoviy bilimlarni o‘zlashtirishdan ham shogirdlarni **ma‘naviy yetuk qilib tarbiyalash** muhim vazifa hisoblangan.

Ertak, doston, rivoyatlarda keltirilishicha, kishilar o‘z farzandini davrning etuk olimlariga, fozil kishilariga shogirdlikka topshirganlar. Xalq tarbiyachi – ustozlarni donishmand hisoblagan, chunki ulardan barcha o‘rnak olgan. Ustozlar o‘z mehri, sahovati, samimiyligi bilan shogirdlari va xalqning sevimli siymosiga aylangan.

Xalq ijodi namunalari hisoblangan ertak, rivoyat, hikoyat va dostonlarda ajoyib murabbiy ustozlar obrazlarini uchratish mumkin. Ularda ustoz doimo ezgu – fazilatli inson sifatida gavdalanadi. Ular tarbiyalagan shogirdlar el-yurt baxt-saodati yo‘lida jon fido etgan insoniy yuksak fazilatli kishilar sifatida tarannum etiladi.

Ustozdan yetuk insoniy xulq-atvor, odobi, ilmi, kitobxonlik madaniyati bilan shogirdlariga namuna bo‘lish talab qilingan. Qur‘onning «Baqara» surasi 25-oyatida ilmi bilan ilmsiz baravar emasligi ta‘kidlanadi. Ma‘naviy fazilatlarga egalik ilmlilikning mezoni hisoblangan. «Ollohdan faqat ilmi kishilargina qo‘rqadi», – deyiladi. Demak, islom ta‘limotida ilm olish insonlarning eng oliy fazilatlaridir. Qur‘onni bilish va unga amal qilish insoniylikning, ezgulikning timsoli deb qaralgan. Qur‘onning «Baqara» surasi 25-oyatida «Boqiy hayotga yetish uchun foni dunyoda iymon e‘tiqod bilan yaxshi amallar qilib yashash shartdir», – deyiladi. Insoniyat ma‘naviy kamolotining asosini, poydevorini yaratajak shunday amallardan biri kitobxonlik hisoblangan. Qur‘onda ta‘kidlanishicha: «Har qanday zot bor mol-mulkini sarflasa ham boshqalarning dilini oshno qilolmaydi». («Anfol» surasi 63-oyat.) [9;8-b.]

Payg‘ambar alayhis-salomdan so‘rabdilar: «Sizning nazingizda kim eng afzal kishi hisoblanadi? – Kimki olloh yo‘lida jehod qilgan, unga iymon keltirgan va odamlarni yomonlikdan ogoh qiluvchi

kishi bo'lsa o'sha afzaldur», – deb javob beradilar. [10;102-b.] Zero, ijodkorlarni va ular yaratgan asarlarni ham biz ma'naviy tarbiya uchun eng afzal, zaruriy ehtiyoj sifatida qadrlashimiz joiz. Kitobxonlik esa ma'naviy yuksalish sari tashlangan qadam, ilm egallash yo'lidagi xayrli izlanish va yaxshi amaldir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qurolboy Qizi Z. Ayol. O'lim hech narsa emas. – T.: Yangi asr avlodi, 2011. 297 b.
2. Сирожиддин Саййид. Сўз йўли. Т.: Шарқ.-2007.91-б.
3. Azim Suyun. Vatan fasillari. Navjy nomli kutubxona nashri.-T.: 2005. 668- b
4. Mahmud Toir. Saylanma. I jild. T.: O'qituvchi, 2008. 83-b.
5. Mahmud Toir. Saylanma. 2- jild. T.: O'qituvchi, 2008. 23-b.
6. Xurshid Do'stmuhammad. Beozor qushning qarg'ishi. Hikoyalar va qissalar.T.: Sharq.- 2007.
7. Farida Afro'z. Tasbeh. T.: Sharq.-2007.- 106b.
8. Ikrom Otamurod. Xaritaga tushmagan joy. Doston. T.: Sharq.-2007. 20-30 b.
9. Ikrom Otamurod.. Dostonlar. T.: Sharq.-2007. 40-43-b.
10. Qaxxorova K. Чорак аср ҳамнафас. –Т.: Ёш гвардия, 1987. –.26 -b.
11. Чўлпон. «Адабиёт надур?» Асарлар. – 3-жилд.Т.: Чўлпон. –2005.73-б.
12. Сафо Магжон. Китоб ўқишни биласизми? – Т., «Ўқитувчи», 1993. 23–24-бетлар.
13. Курьони Карим. Ўзбекча изоҳли таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. Т., «Чўлпон», 1992. 8-бет.
14. Ал Бухорий. Ал-адаб ал-муфрад. Т., «Ўзбекистон», – 1990. 218b-.
15. Ikrom Otamurod. Tag'azzul.Doston. T.: Sharq.-2005. 25-32-b.
16. Q.Yo'ldosh, M.Yo'ldosh.Badiiy tahlil asoslari. T.:Kamalak.–2016.166-b.
17. A.Ulug'ov. Qalb qandili.T.:Akademnashr.-2013.-113-b.
18. M.Mirqosimova. Badiiy asarlarni sharhlab o'rgatish.T.: TDPU.- 2015.
19. Эргашев, П. С. (2019). Образ жизни и чувство симметрии: об одной особенности психического развития детей среднеазиатских цыган-люли. Культурно-историческая психология, 15(2), 65-71.
20. Mirqosimova, M. U. (2019). THE VIEWS OF AHMED YASSAVI ON SPIRITUAL EDUCATION. The Light of Islam, 2019(1), 10.
21. Эргашев, П. С. (2017). Чувство симметрии как знаковый элемент психологического портрета литературных героев русских классиков. Преподаватель XXI век, (1-2).
22. Alimova, Mahfuza and Nigmatullayev, Ibrohim (2019) "CLARIFICATION OF TOLERANCE IN ISLAMIC SOURCES," The Light of Islam: Vol. 2019 : Iss. 1 , Article 13. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/iiaw/vol2019/iss1/13>
23. ISAKDJANOV, Ramzjon (2019) "RATIONAL PRINCIPLES IN IBN-SINA'S THEOLOGICAL EDUCATION AND THEIR CHARACTERISTIC FEATURES," The Light of Islam: Vol. 2019 : Iss. 3 , Article 8. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/iiaw/vol2019/iss3/8>
24. Умаров, Б. М., Ражабова, Ф. П. (2015). Вояга ет-маганларда хулқ оғиши ва тарбия бузилишининг ижтимоий-психологик омиллари. Современное образование (Узбекистан), (8).
25. Расулова, З. А. (2017). Новый методологический подход в изучении семейно-брачных отношений. История российской психологии в лицах: Дайджест-ISSN 2415-7953 (РИНЦ), (6), 295-298.
26. Rasulova, F. F. (2016). CHARACTERISTICS OF PRINCIPAL WAYS AND METODS OF CORRECTION OF AGGRESSIVE BEHAVIOR AMONG TEENAGERS. Theoretical & Applied Science, (9), 173–176.

